

YUSUF XOS HOJIB MA'NAVIY MEROSI VA UNING YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15638761>

Ismoilov Muhammadihon Isroilovich

Namangan davlat texnika universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrası professori,
falsafa fanlari doktori

m-ismoilov@gmail.com O'zbekiston,

Isxakov Bexzod Barkamalovich,

tarix fanlari falsafa doktori PhD, Namangan davlat texnika universiteti

Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti

behzodisxakov2782886@gmail.com,

<https://orcid.org/0000-0003-2706-4605>, O'zbekiston,

Annotatsiya: Maqolada mutafakkir Yusuf Xos Hojibning boy ilmiy merosi tahlil qilinib, uning o'ziga xos ahamiyatini asoslash, Yangi O'zbekiston ma'naviy poydevorini yaratishda, yoshlarda ma'naviy fazilatlarini qaror toptirishda muhim vosita ekanligi qisqacha bayon etilgan.

Kalit so'zlar: "Uchinchi Renessans", "Saodatga eltuvchi bilim" asari, dialog usuli, dialektik aloqadorlik.

Abstract: The article analyzes the rich scientific heritage of the thinker Yusuf Khos Khajib and briefly explains its unique significance, its importance as an important tool in creating the spiritual foundation of New Uzbekistan, and instilling spiritual virtues in young people.

Keywords: "The Third Renaissance", The work "Knowledge that leads to happiness", dialogue method, dialectical communication.

Mazkur ilmiy muammoning o'ta dolzarbligi muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning quyida bayon etilgan fikrlarida ham yorqin ifodasini topgan. "Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans g'oyasini farzandlarimiz ongiga aynan bolalik davridan, bog'chadan va maktabdan boshlab singdirishimiz zarur. Buning uchun tarixni ajdodlarimiz merosini, dunyo tajribasini, turli xalqlarning yutuq va kamchiliklarini atroflicha o'rganish kerak"[1].

Yuqorida bayon qilingan fikrlarda metodologik ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi tamoyillarga ustuvor masala sifatida qarash shu kunning o'ta muhim talablaridan biridir. Bu tamoyillar tarkibiga birinchi navbatda boy ilmiy ma'naviy merosimizga xolisona, adolat tamoyillaridan kelib chiqib yondashish, dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki tarixni soxtalashtirish, unga nisbatan adolatsiz yondashuvlar hozirgi davrda ham uchrab turibdi.

Bu esa voqea va hodisalarga yondashuvda tarixiylik birlamchi, mantiqiylik esa ikkilamchi, buyuk nemis klassik falsafasining yirik namoyondasi G.V.F.

Gegelning mantiqiylik tarixiy tarixiylikning inikosi ekanligi haqidagi fikrlari chuqur tahsinga sazovordir.

Bizga ma'lumki tarixiy tadqiqotlarning bir necha usullari, jumladan: 1) Aniq tahliliy 2) Mantiqiy tahliliy 3) Xronologik 4) Davriylashtirish kabi usullardir.

Mazkur ilmiy maqolada biz yuqoridagi usullarning o'rinlarini kamsitmagan holda, ijtimoiy-falsafiy ma'noda muhim ahamiyat kasb etuvchi mantiqiy tahliliy usuldan foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Chunki bu usul ma'lum bosqich yoki davrda tarix fanining rivojini ijtimoiy taraqqiyotning asosiy yo'nalishlari bilan dialektik aloqadorlik va bog'lanish asosida tadqiq etadi.

Bundan tashqari tarixiylik metodini muayyan zamon va makon bilan hamnafaslikda olib tahlil qilish ilmiy muammolarni hal etishda o'ziga xos metodologik yechim bo'ladi.

Maqolamizda ilgari surilgan g'oyalarning amaliy ahamiyati bevosita, yoshlarimiz ruhiy va ma'naviy kamolotida, ularni komil inson bo'lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etishi masalasidir.

XI asrda yashab ijod qilgan Markaziy Osiyodagi yirik mutafakkirlardan biri bo'lgan Yusuf Xos Hojibning boy ilmiy merosini tahlil qilib, uning o'ziga xos ahamiyatini asoslash, shubhasiz Yangi O'zbekiston ma'naviy poydevorini yaratishda, yoshlarimizda yuksak ma'naviy fazilatlarni qaror toptirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa uning "Qutadg'u bilig" (Saodatga eltuvchi bilim) asaridagi qomusiy bilimlar gnoseologik nuqtai nazardan muhim ahamiyat kasb etadi.

Fikr yuritilayotgan asarda o'z zamonasining bir qator bilim sohalari, jumladan, tibbiyot, falakkiyot, tarix, tabiatshunoslik, geografiya, riyoziyot, handasa, falsafa, adabiyot, ta'lim-tarbiya, fiqh ilmiga oid fikrlar mavjud bo'lib, ular o'z navbatida Yusuf Xos Hojibning o'z davrining yirik mutafakkiri, qomusiy bilimlar sohibi ekanligidan dalolat beradi.

Mutafakkirning buyukligi, ayniqsa uning "Qutadg'u bilig" asarining o'z ona tili turkiy tilda bitilgani bilan alohida ehtiromga loyiqdir.

Mutafakkir buyukligining yana bir alomati – uning olam va uning moddiy asosini uning o'ziga tayanib turib asoslagani, ya'ni butun borliqning boshlang'ich asosini to'rt unsur – suv, havo, olov va tuproq haqida ekanligi haqida fikr yuritganlili, uning o'zigga xos dunyoqarash egasi bo'lganligidan dalolatdir. Bundan tashqari "Qutadg'u bilig" asaridagi fikrlar Yusuf Xos Hojibning Qadimgi Sharq va G'arb mutafakkirlari asaridan yaxshi habardor ekanligidan dalolat beradi.

Asar dialog usuliga tayanib ijtimoiy hayotning o'sha davrdagi barcha qatlamlariga taalluqli bo'lgan axloq va odob, hatti harakatlar va faoliyatlar haqida bahs-munozaralar yuritiladi.

Uning yuksak axloqiy fazilat bo'lgan ezgulik haqidagi fikri, jumladan:

Kishi mangu bo'la olmaydi, mangu uning otidir,

Undan mangu qoladigan narsa uning bu ezgu otidir

O'zing mangu emas, oting mangudir.

Oting mangu bo'lsa, o'zing mangu dirsan
Kishi ezgu nom bilan olqish oladi, ko'rgin,
Nom chiqargan yomon bo'lsa, qarg'ish topadi, kabi g'oyalar hisoblanadi.
Yusuf Xos Hojibning gnoseologik xarakterga ega bo'lgan quyidagi fikrlari e'tiborga sazovordir:

Arabcha, tojikcha bunday kitoblar talaydir,
Bizning tilimizda esa bu jamlangan zakovatdir.
Buning hurmatini bilimli biladi,
Bilim qiymatini zakovatli uqadi.

Yusuf Xos Hojibning yuksak axloqiy fazilatlarini tarannum etuvchi, hamda donishmandlikka undovchi quyidagi fikrlari e'tiborga molikdir.

Bilib so'zlasa, so'z donolik sanaladi,
Nodonning so'zi o'z boshini yeydi.
Ko'p so'zda ortiq foyda ko'rmadim,
Yana ko'p so'zlashdan naf topmadim.

Kishi so'z tufayli ko'tariladi. Ko'p so'z boshni yerga egadi.

Inson falsafasiga taalluqli bo'lgan quyidagi fikrlar hozirga qadar o'z ahamiyatini saqlab turibdi.

Kishi o'zi ikki narsa tufayli qarimaydi; biri – ezgu xulqi, biri – ezgu so'zi.

Inson tug'iladi, o'ladi, ko'rgin, uning so'zi qoladi. Inson o'zi o'ladi, oti (mangu) qoladi, nazar sol.

Buyuk alloma mantiqiy jihatdan ilg'or fikrlovchi shaxs bo'lganligini tasdiqlovchi quyidagi dalillarni keltirish mumkin:

Bilimli kishi nima deydi eshitgin,
Bilimli (kishi) so'zi chindan ham sevik jon tengidir.

Ko'rgin, u bir qator narsalar kishiga dushmandir, Odam bularni bilib olsa, joni rohatda bo'ladi. U o'zining yuqorida qayd etilgan asarida ijtimoiy hayotdagi salbiy fazilatlarni qoralab, ijobiy jihatlarni ulug'laydi.

Yusuf Xos Hojib dunyoqarashida o'sha davr muhitining ta'siri natijasida idealistik nuqtai nazardan faoliyat ko'rsatganiga qaramay, u o'zining mashhur "Qutadg'u bilig" asarida ezgulik timsollari bilan o'sha davr boshqaruv tizimida faoliyat qilganlarga o'zinin hikmatli ta'limoti bilan o'ziga xos tarzda ta'sir ko'rsatishga intilganligini qayd etish mumkin.

Mutafakkir asarining o'ta qimmatli tomoni shundaki, unda qo'yilgan o'tkir ijtimoiy masalalar (adolat, davlat, aql, qanoat) kabilar o'zaro suhbat, bahs-munozara shaklida bayon qilinganligi uchun o'quvchiga o'ziga xos motivatsiya ham ilhom uyg'otadi. Shu asosda didaktika – ta'lim va tarbiyaga oid ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolar, hamda ularning yechimi bilan bog'liq fikrlar ob'ektiv idealizm ruhi bilan sug'orilgan bo'lishiga qaramasdan, o'z davrida, qolaversa hozirgi kunimiz uchun o'zining ilmiy ahamiyatini saqlab turibdi deb xulosaga kelish mumkin.

"Qutadg'u bilig" asaridagi donolik, odillik, halollik, bilimdonlik, insoniylik, shirinsuxanlik, do'stlik, saxiylik, kamtarlik kabi fazilatlarning tarannum etilganligi

muallif dunyoqarashida ratsionalizm va gumanizm g'oyalari ustuvor ahamiyatga ega bo'lganligini asoslab beradi.

Asarda ilgari surilgan inson ijtimoiy kamolotida ijtimoiy foydali mehnatning mavqei yuqoriligi bilan bog'liq bildirgan fikrlari bugungi kunimiz, qolaversa yoshlarimiz ma'naviy kamolotida o'ziga xos maqomga ega bo'lib, Uchinchi Renessans poydevorini qurishda fundamental asos rolini o'ynaydi deb xulosa qilish mumkin.

Bundan tashqari asarda odil va gullab yashnaydigan, farovonlik sari yagona maqsadni ko'zlab yashaydigan davlat barpo etish orzusi olg'a surilganligi, unda murosa falsafasiga katta e'tibor qaratilganligidan dalolat beradi.

Shuning uchun ham asarning nemis, frantsuz, rus, chex, turk, uyg'ur, xitoy, o'zbek va boshqa tillarga tarjima qilingani esa uning boy ilmiy-ma'naviy hayotimizda buyuk fenomen ekanligidan darak beradi.

Yakuniy xulosada shuni ta'kidlash lozimki, buyuk alloma o'zi yashagan davr ijtimoiy muammolarini badiiy tafakkur qonuniyatlari asosida ob'ektivlik tamoyilidan kelib chiqib mohirona tahlil qilib bera olgan. Ana shuning uchun ham "Qutadg'u bilig" asari Sharq va G'arb mamlakatlari sivilizatsiyasi tarixida yuksak ehtiromga sazovor bo'lib katta shuhrat qozongan.

Yusuf Xos Xojibning inson ma'naviy taraqqiyoti kontseptsiyasi bilan bog'liq, hamda inson tafakkurining olamni bilish jarayonidagi yuksak maqomi bilan bog'liq purviqor ta'limotlari, shu jumladan, insonni ulug'lash, haqidagi gumanizm ruhi bilan sug'orilgan ilg'or g'oyalari Yangi O'zbekistonning ma'naviy poydevorini mustahkamlashda, yoshlarimiz intellektual salohiyatini yuksaltirishda o'ta muhim dastur vositasini bajaradi deyish uchun to'la asos bor.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ш.М. Мирзиёев. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган 2-нашри. – Тошкент., Ўзбекистон, 2022. – Б. 286.
2. И.М. Мўминов. Танланган асарлар. Учинчи жилд. – Тошкент., "Фан" нашриёти, 1972. – 204 бет.
3. А.А. Мухамедов. Юсуф Хос Ҳожиб ва Мишел Монтен ижтимоий-фалсафий меросининг компративистикаси. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори PhD диссертацияси автореферати. – Андижон., 2022. – Б. 5.